

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLA SHAXSINING KOMMUNIKATIV QOBILAYATINI RIVOJLANTIRISHDA DO'STONA MUNOSABATNING O'RNI

Hayotova Mukarrama Farxod qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi birinchi kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15190700>

Annotatsiya. Odamzot hayotda baxtli, barkamol, jamiyat rivojiga xissa qo'sha oladigan shaxs bo'lib yetishishida milliy qadriyatlarining o'rni beqiyos. Milliy qadriyatlar insonni ma'naviy yuksalishi, qalbi orom topishi, o'ziga ishongan shaxs bo'lib kamol topishiga hizmat qiladi. Milliy qadriyatlar insonni ruhini, qalbini poklaydi, mustahkam iroda va kuch beradi.

Inson, avvalo, o'zini va boshqalarni hurmat qiladigan, o'zini jamiyat uchun kerakli shaxs sifatida barkamol bo'lib yuksalishida moddiy va ma'naviy boylikka ehtiyoj sezadi.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda bola shaxsining kommunikativ qobilayatini rivojlantirishda do'stona munosabatning o'rni haqida mushohada yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bola shaxsi, kommunikativ qobilayat, do'stona munosabat, boshqaruvchilik, ijtimoiy psixologiya.

РОЛЬ ДРУЖБЫ В РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ РЕБЕНКА В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. Роль национальных ценностей неопоставима в становлении человека счастливым, зрелым человеком, способным внести свой вклад в развитие общества.

Национальные ценности помогают человеку духовно вырасти, обрести душевное спокойствие, стать уверенным в себе человеком. Национальные ценности очищают душу и сердце человека, дают твердую волю и силу. Прежде всего, человеку необходимы материальные и духовные блага, чтобы стать человеком, уважающим себя и других, и стать человеком, необходимым обществу.

В данной статье рассматривается роль дружбы в развитии личности ребенка в дошкольном образовании.

Ключевые слова: дошкольное образование, личность ребенка, коммуникативные способности, доброжелательное отношение, управление, социальная психология.

THE ROLE OF FRIENDSHIP IN THE DEVELOPMENT OF A CHILD'S COMMUNICATIVE ABILITY IN PRESCHOOL EDUCATION

Abstract. The role of national values is incomparable in the development of a person to become a happy, mature person who can contribute to the development of society. National values help a person to grow spiritually, find peace of mind, and become a self-confident person.

National values purify a person's soul and heart, give strong will and strength. First of all, a person needs material and spiritual wealth in order to become a person who respects himself and others, who is necessary for society.

This article examines the role of friendship in the development of a child's personality in preschool education.

Key words: *preschool education, child's personality, communicative ability, friendly attitude, management, social psychology.*

Kirish. Do'stona munosabat – tarbiyalanuvchilar o'rtasida yuksak ma'naviyat tamoyillari asosida shakllanadigan, o'zaro ahillik va yaqinlikni anglatuvchi tushuncha. Bu tushuncha umumiy manfaatlar, o'zaro ishonch va chuqur hissiy munosabatlarga asoslangan tuyg'u. Bu qadriyat sifatida ijtimoiy hayotda va shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladi. Do'stlik munosabatlari norasmiy, "yozilmagan" qoidalarga asoslanadi. Bunday munosabatlar har bir tarbiyalanuvchidan samimiylik, ochiqlik, o'zaro ishonch, haqqoniylik, xayrixohlik fazilatlarini namoyon etishni talab qiladi.

Asosiy qism. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhlar – bu bolalarning birinchi ijtimoiy birlashmasi hisoblanadi, bu jamoada bolalar turli faoliyatlarda o'z muloqotlarini boshqaradilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'zaro do'stona munosabatni shakllantirishda turli nizolarga duch kelish mumkin. Ulg'aygan sari maktabgacha yoshdagi bolalarning tengdoshlariga bo'lgan munosabati o'zgarib boradi, bolalar o'rtoqlarini ishchanlik xususiyatlariga qarab emas (qiziq o'yinlarni tashkil etish malakasi, tengdoshlari bilan kelishib ishlashi, kattalarga, kichkintoylarga yordami), balki shaxsiy sifatlariga qarab ham, ayniqsa, axloqiy sifatlariga qarab ham baholay boshlaydilar.

Bolaning tengdoshlari bilan muloqotga kirishish qobiliyatining rivojlanganligini o'rganishda katta yosh guruhida bolalar orasida tanlanish munosabatlari o'rnatiladi. Bolalar tengdoshlari o'rtasida har xil o'rinni egallay boshlaydilar; ba'zi bir bolalarni bolalar boshqalardan ko'proq tanlaydilar, ba'zi birlarini kamroq tanlaydilar. Bolalar tomonidan tanlanish boshqaruvchilik tushunchasi bilan bog'liq. Boshqaruvchilik ijtimoiy psixologiyada asosiy ahamiyatga ega. Boshqaruvchilik ba'zi bir bolalarga boshqarish imkoniyatini yaratib, boshqalarga boshchilik qilish, ularni maqsad sari olib borish imkoniyatini yaratadi. Boshqaruv jarayoni, birorta guruh faoliyatini tashkillashtirishda aniq maqsad qo'yish va unga erishishda o'z ifodasini topadi.

Bunday tasavvurni maktabgacha yoshdagi bolalar guruhi uchun ifodalash qiyin, asosan maktabgacha ta'lim muassasasida qo'llash mumkin emas, chunki bu yoshda hech qanday maqsad va vazifalar belgilanmaydi, bunda ijtimoiy ta'sir to'g'risida gapirish mumkin emas.

Ayrim bolalarni tanlash bu tashqi tomondan tanlanish hisoblanadi. Bu tanlanish faqat shu bolalarga intilish xolos. Shuning uchun aynan shu yoshda liderlik ustida emas, balki bolalarning bir - biriga intilish va hammaga taniqli bo'lishi haqida gapirish mumkin. Bolalarning taniqli bo'lishi tengdoshlari orasida katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolaning guruhdagi tengdoshlariga munosabati qanday taraqqiy etishiga qarab bolaning kelgusidagi shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyoti qay darajada rivojlanishini belgilash mumkin. Guruhdagi bolalarning o'rnini (ularning tanlanish va rad etilishi) sotsiometrik usullar orqali o'zaro (o'zaro bo'lmagan) bolalarning tanlovini aniqlashga yordam beradi.

Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o'zaro harakat sohasida maxsus ko'rinishga ega bo'lgan muloqotga qobiliyatlilikdir. Psixologik adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi:

1) insonning insonni tushuna olishi (insonni shaxs sifatida, uning alohida jihatlarini, motiv va ehtiyojlarini baholash, tashqi xulq-atvorini ichki olami bilan bog'liqlikda ko'rib chiqish, yuz, qo'l, gavda harakatlarini "o'qish" ko'nikmasi)

2) insonni o'z-o'zini anglay olishi (o'z bilimi, qobiliyati, o'z xarakteri va boshqa qirralarini baholash, inson boshqalar tomonidan qay tarzda qabul qilinishi va atrofdagilar ko'zi bilan baholash);

3) muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish ko'nikmasi (mavjud holatni kuzatish, uning namoyon bo'lish belgilari haqida ko'proq axborotlarni ajratib olish, ularga e'tiborni qaratish, yuzaga kelayotgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to'g'ri idrok etish va baholash). O'qituvchining kommunikativ ta'sir etish usullari Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi: talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Bolalarda do'stona munosabatni rivojlanishida bir nechta asosiy omillar bor:

- Hissiy intilish: Bolalar tabiatan yaqin insonlar bilan vaqt o'tkazishni xohlaydi. Ular o'zining hissiyotlarini tushungan va hamdardlik bildirganlarga ijobiy munosabatda bo'ladi.

- Birgalikdagi tajriba: Bolalar vaqtini ko'p qismini birga o'tkazganliklari sababli, barcha jarayonlarda birga bo'lish ularda tajribalarga ega bo'lish imkonini beradi.

- O'rganish va yordam: Do'stlik orqali bolalar bir-birlariga qiyinchilik tug'dirgan faoliyat turlarida yordam beradi va o'rgatadi. Bunda bolalarda bir-biriga bo'lgan hurmat rivojlanishiga zamin bo'ladi.

Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoniga qiynalmay moslashishi, tartib va intizomga rioya qilishi, yangi muhitga ko'nikishi, u uchun yangi qoidalarga bo'ysunishi va berilgan vazifalarni o'z vatida bajarishida unga do'st yordamga keladi.

Bolalar o'yin jarayonida hamkorlik qiladilar va birbirilarini harakatlarini kuzatib navbatda turish, yordamlashish, bolalar o'rtasida uchrab turadiga nizolarni bartaraf etish, hurmat qilish kabilarni o'rganadi. Shu bilan birga boshqalar bilan muloqot qilish jarayonida o'z his-tuyg'ularini boshqarishda qiynalmaydi. Bolalar birgalikdagi faoliyati jarayonida o'zlaridagi bor qobiliyatlarni yuzaga chiqarishadi. Masalan, bir do'sti to'siqdan sakrab o'tsa, boshqasi ham uning harakatini takrorlashga o'zida kuch topadi. U uchun murakkab tuyulgan ishlar do'sti tomonidan bajarilishi uning ham qo'lidan kelishiga ishonch shakllantiradi. Shu bilan bir qatorda bolalar o'rtasidagi musobaqalarda ham ularga do'stlarining qo'llab quvvatlashi energiya beradi va yaxshi natijalar ko'rsatish uchun o'zida kuch topadi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida har tomonlama rivojlantiriladi va berkinib yotgan qirralari tarbiyachi, do'stlari orqali kashf etiladi. Bolani maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashishi va mashg'ulot jarayoniga aktiv qatnashishi, o'zini erkin his qilishida birinchi o'rinda tarbiyachi yordam beradi, keyingi o'rinda o'zi uchun tanlagan do'stlari ko'maklashadi. Bola uchun maktabgacha ta'lim tashkilotida yaqin odam bo'lishi kerak.

Chunki, bola maktabgacha ta'lim tashkilotida o'zini boshqalar tomonidan qabul qilinmagan va ortiqcha his qilishi uni bu maskanga kelishiga to'sqinlik qiladi, ya'ni u bu yerda ruhan qiynaladi. Ushbu holatda tarbiyachi, avvalo, do'st bo'lib muloqot qiladi va boshqa bolalar bilan munosabat o'rnatib, o'zi uchun do'st tanlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda do'stona munosabatning ta'lim bilan o'zaro uyg'unlashuviga erishish uchun ijtimoiy munosabatlar tizimini takomillashtirish bilan birga, ularning ma'naviy qadriyatlar tizimi bilan mushtarakligini ta'minlash lozim. Turli darajadagi ijtimoiy jarayonlar va munosabatlar ma'naviy qadriyatlar negiziga tayangan taqdiridagina do'stlik va hamkorlik ruhining jonlanishi, rivoji va takomillashuviga imkoniyat tug'iladi.

REFERENCES

1. Рахимов Ф. Б., Шарипова М. Б. МЕСТО ИННОВАЦИЙ В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ПРОБЛЕМ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Academy. – 2020. – №. 5 (56).
2. Шарипова М. Б., Садуллоева М. Б. К. ПРОФЕССИЯ «УЧИТЕЛЬ» И ЕЁ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46)
3. Шарипова М. Б., Мустакимова Г. А. Наследие мыслителей в эстетическом воспитании учащихся начальной школы //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 10-5. – С. 48-49.

4. Ахмедова М. Ш., Шарипова М. Б. ВОСПИТАНИЕ РЕБЕНКА НА ОСНОВЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ //Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч. – 2016. – С. 118.
5. Шарипова М. Б., Истамова З. Особенности этического воспитания детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 39.
6. Шарипова М. Б., Саъдуллаева М. Б. К. РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
7. Шарипова М. Б., Ашурова Ф. А. Межличностные отношения в дошкольном возрасте //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 35
8. Шарипова М. Б., Нейматова Ш. Н. Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-3. – С. 113.
9. Камилова, Г. А., Курбанова, Г. Р., & Джаббарова, С. З. (2020). Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений. *Academy*, (5 (56)), 25-27.
10. Камилова, Г. А., & Тураева, О. С. К. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Проблемы науки*, (4 (63)), 50-52.
11. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). Эффективность экологического образования: образование дошкольников с помощью педагогических технологий. *Academy*, (12 (63)), 60-62.
12. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ОБРАЗОВАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Academy*, (12), 60-62.
13. Камилова, Г. А. (2021). Развитие системы дошкольного образования. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 86-88.
14. Alimovna, K. G. (2022). Laws of Ecological Education. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 241-244.
15. KAMILOVA, G. (2024). EKOLOGIK TARBIYADA PAREMIOLOGIYA VA UNING XUSUSIYATLARI. *News of the NUUz*, 1(1.1), 83-86.
16. Kamilova, G. A. (2024). PARAMERIK JANRLAR VOSITASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV. *Inter education & global study*, (5), 565-5574.

17. Камилова, Г. А. (2023). Мактабгача Таълим Ташкилотларида Экологик Тарбия. *Miasto Przyszłości*, 42, 330-333.
18. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. Nю A. *Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab-Oliy talim konsepsiyasi muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro*, 46-48.
19. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. Nю A. *Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab-Oliy talim konsepsiyasi muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro*, 46-48.
20. Kamilova, G. (2020). Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
21. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). Повышение экономической грамотности у детей дошкольного возраста с помощью развития коммуникативных компетенций. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 44-46.
22. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). КОММУНИКАТИВНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 47-50.
23. Kamilova, G. A. Go'Zal Rajab Qizi Qurbonova (2021). *МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИРИГА РАЊВАРЛИК ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ YONDASHUV. Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
24. Kamilova, G. A. (2021). *МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИРИГА РАЊВАРЛИК ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ YONDASHUV. Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
25. Камилова, Г. А., Султонова, М. И., & Бобожонова, М. А. (2023). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ STEAM В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 41-44.
26. Safarova, S., & Kamilova, G. (2024). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING ERKIN FIKIRLASHINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING АНАМИЯТИ. *Modern Science and Research*, 3(12), 504-507.
27. Камилова, Г. А., Мухаммедова, М. М., & Жабборова, О. С. К. (2023). МЕТОДИКА СИСТЕМАТИЧЕСКОГО ВКЛЮЧЕНИЯ МЕНТАЛЬНОЙ АРИФМЕТИКИ ЧЕРЕЗ ИГРЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 38-41.

28. Камилова, Г. А., & Кулиева, Х. Г. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 82-84.
29. Jabbarov, I. A. U. (2022). TYPOLOGY AND FUNCTIONS OF A COMPLIMENT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 854-860.
30. Alimovna, K. G., & Abduraufovna, B. A. (2025). INNOVATIVE APPROACHES TO CREATING A DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT FOR PRESCHOOL CHILDREN. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 3(3), 1-5.
31. Камилова, Г. А., & Тохирова, Ш. Б. К. (2023). ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ВТОРОМУ ЯЗЫКУ В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 84-88.
32. Kamilova, G. A., & Jo'rayeva, D. R. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlari, "Maktabgacha ta'lim-maktab-oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.
33. Rahmidinovna, Z. D. (2024). THE GOALS AND OBJECTIVES OF INTEGRATED CLASSES IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES AND THE IMPORTANCE OF INTERDISCIPLINARY COMMUNICATION. *European International Journal of Pedagogics*, 4(11), 50-55.